

## Toshkent viloyati statistika boshqarmasi



### 2018 yil yanvar-fevral oylarida Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (dastlabki ma'lumot)


#### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi 4,6 trln.so'mni, o'sish 12,6 %ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati -110,5 %
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - 16,9 %
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 16,9 %

Dastlabki ma'lumotlar bo'iyicha 2018 yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent viloyati korxonalarini tomonidan 4,6 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 11,7 % ga , tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 3,4 % ga ,elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalashning 30,8 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 36,4 % ga o'sishi hisoblanadi.

#### 2018 yil yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 644,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,0 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3400,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 73,8 % ni tashkil etdi.

***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 542,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,8% ni) tashkil etdi.


***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.

***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 780,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 10,5 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 16,9 % ni tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**



2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 68,6 % dan 2018 yilning yanvar-fevral oylarida 61,0 % ga kamayishi kuzatilmoqda.


**Yanvar -fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da**



### *Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Olmaliq shahar (viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmning 30,7 % ulushini), Bekobod shahar (18,4 %), Zangiota (10,4 %) va Qibray (8,2%) tumanlari, Angren (7,6 %), Chirchiq (6,1 %) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### *2018 yilning yanvar-fevlar oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da*




Shu bilan birga eng kam ulush Nurafshon sh. (0,2 %), Ohongaron. (0,3 %), Piskent. (0,4 %), Quyichirchiq, Oqqo'rg'on, Bekobod, Parkent (0,5 %) va Bo'ka (0,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Chirchiq shahrida (2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 150,2 % ga), Angren (141,5 % ga), Bekobod shaharlarida (126,4 % ga) Yangiyo'l (130,1 % ga), Zangiota tumanlarida (122,2 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

**2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari**

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 16,9 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (73,6 %), Yangiyo'l (67,7 %), Yuqorichirchiq (66,7 %), Bekobod (59,9 %) tumanlarida va Nurafshon shahrida (62,8 %) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Bekobod (1,3 %), Olmaliq (1,5 %), Angren (7,8 %) va Ohongaron (8,6 %) shahrida kuzatildi.

**2018 yilning yanvar-fevlar oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da**

